

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL SPORT TURINING IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUVI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21287087>

Irmatov Dilyor Yunusbekovich

*Farg'ona davlat universiteti sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyoiti kasedrasi
mustaqil izlanuvchisi*

СОЦИАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ФУТБОЛА В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

SOCIAL TRANSFORMATION OF FOOTBALL IN MODERN SOCIETY

Аннотация

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda futbol sport turining ijtimoiy transformatsiyalashuvi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Futbolning ilm-fan bilan integratsiyalashuvi, xususan, sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sport sohasiga kirib kelishi orqali uning mazmunan yangi bosqichga ko'tarilgani yoritilgan. Shuningdek, futbolning shaxs intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi o'rni, sotsial-intellekt tushunchasi bilan uzviy bog'liqligi hamda jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi roli asoslab berilgan. Tadqiqotda futbol orqali shaxsning kognitiv, axloqiy va ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanishi, sportning neyrofiziologik jihatdan inson tafakkuriga ijobiy ta'siri ilmiy dalillar asosida ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, o'zbek futbolini rivojlantirish istiqbollari, milliy futbol tizimida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Natijada futbol nafaqat sport turi, balki zamonaviy jamiyatda muhim ijtimoiy-intellektual institut sifatida namoyon bo'lishi xulosa qilingan.

Калит so'zlar

futbol, ijtimoiy transformatsiya, sotsial-intellekt, sun'iy intellekt, VAR tizimi, ijtimoiylashuv, kognitiv rivojlanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sport falsafasi, jamiyat, shaxs, intellektual salohiyat, global sport, innovatsiya, o'zbek futboli.

Аннотация

В данной статье анализируется социальная трансформация футбола в современном обществе с социально-философской точки зрения. Интеграция футбола с наукой, в частности, внедрение искусственного интеллекта и информационно-коммуникационных технологий в спортивную сферу, подняла его на новый содержательный уровень. Также обосновывается роль футбола в развитии интеллектуального потенциала личности, его

неразрывная связь с концепцией социального интеллекта и его роль в формировании социальных отношений в обществе. Исследование демонстрирует развитие познавательных, моральных и социальных навыков личности посредством футбола, положительное нейрофизиологическое воздействие спорта на мышление человека на основе научных данных. Кроме того, выдвигаются перспективы развития узбекского футбола, существующие проблемы в национальной футбольной системе и предложения по их устранению. В результате делается вывод, что футбол является не только спортом, но и важным социально-интеллектуальным институтом в современном обществе.

Ключевые слова

футбол, социальные преобразования, социальный интеллект, искусственный интеллект, система VAR, социализация, когнитивное развитие, информационно-коммуникационные технологии, философия спорта, общество, личность, интеллектуальный потенциал, глобальный спорт, инновации, узбекский футбол.

Abstract

This article analyzes the social transformation of football in modern society from a socio-philosophical perspective. The integration of football with science, in particular, the introduction of artificial intelligence and information and communication technologies into the sports field, has raised it to a new level in terms of content. It also substantiates the role of football in the development of the intellectual potential of the individual, its inextricable connection with the concept of social intelligence, and its role in the formation of social relations in society. The study demonstrates the development of cognitive, moral and social skills of the individual through football, the positive neurophysiological impact of sport on human thinking based on scientific evidence. In addition, the prospects for the development of Uzbek football, existing problems in the national football system and proposals for their elimination are put forward. As a result, it is concluded that football is not only a sport, but also an important socio-intellectual institution in modern society.

Keywords

football, social transformation, social intelligence, artificial intelligence, VAR system, socialization, cognitive development, information and communication technologies, sports philosophy, society, personality, intellectual potential, global sports, innovation, Uzbek football.

Kirish. Zamonaviy futbol insonlarning intellektual rivojlanishga qo'shayotgan ulushi va sun'iy intellektning futbolga kirib kelishi hamda jamiyatga ta'siri. Futbol bilan ilm-fanning integratsiyalashuvi va uning samaralari. Zamonaviy futbol falsafa,

sotsiologiya, tarix va geometriya fanlarining o'zaro integratsiyalashuvi. Jamiyatda futbol shaxslarning intellektual salohiyatlarining ortishida qo'shayotgan ulushi.

O'zbek futbolini rivojlantirishda bugungi kunda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan omillar. Futbol sport turi yuqori potensialga ega bo'lgani holda biz uning imkoniyatlaridan qaysi darajada foydalana olayotganligimiz. XX asr o'zbek futbolida mavjud bo'lgan bir qator an'analarning bugungi kunda yo'qolib ketganligi va futbolchilarning maydondagi faoliyatlari yakunlanganidan keyin jamiyat hayotidan uzilib qolishlari va ularni to'plagan tajribalaridan va qobiliyatlaridan kelib chiqib faoliyatlarini samarali tashkil etish yuzasidan tavsiyalarga e'tibor qaratiladi. Milliy futbolimizning bugungi kundagi darajasi, o'zbek futbolchilarining xorijiy mamlakatlarda milliy futbolimizni targ'ib etishi va uning samaradorligini oshirish yuzasidan maxsus dasturlar ishlab chiqish bo'yicha takliflar o'rin olgan.

Dolzarbli. Globallashuv jarayonida ma'lumotlar oqimining ko'pligi, integratsiyaning kuchliligi va urbanizatsiyaning tezlashishi insoniyatdan kuchli ko'nikmalarning shakllanishini talab qilmoqda. Insonning jamiyatga singib borishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda shaxsning aqliy imkoniyatlari va axloq sifatleri muhim o'rinni egallaydi. Jamiyatda shaxsning ma'naviy qadriyatlar asosida rivojlangan intellektual qobiliyati uning muhim jihati. Kundalik hayotimiz davomida shaxslarning aqliy qobiliyatlari haqida fikr bildirilganda, ularning asosiy individual farqlari sifatida asosan onglari namoyon bo'ladi.

Shaxsning aqliy qobiliyati tushunchasi bugungi kunda ham ilmiy jamoatchilik tomonidan keng muhokama maydoniga aylangan mavzulardan biridir. Intellekt shaxsda individual (kognitiv funksiyalar asosida) yoki jamoaviy intellektuallik shaxs shakllanishida muhimmi kabi savollar tortishuvlarning asosiy markazi hisoblanadi.

Shu o'rinda, individual intellekt tushunchasi mavjudki, uning funksiyasi asosida intellekt yaratiladi. Shaxsdagi intellektni aniqlash tizimi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab amalga oshirila boshlangan. Asosan, ushbu tajriba ob'ekti bolalar hisoblanib, ulardagi individual xususiyatlar, xronologik yosh va "intellektual yosh" o'lchov sifatida olingan. Intellektual yoshni aniqlashda bolaning turli vazifalarni bajara olish qobiliyatidan kelib chiqib baholangan. Keyinchalik kattalardagi intellekt darajasini ham aniqlovchi "Wexler" tajribalari paydo bo'ldi.

O'z navbatida, sotsial-intellekt yaratilgan ma'naviy qadriyatlarni omma e'tiboriga havola etish va jamiyatda keng yoyishda faol ishtirok etadi. Intellekt jamiyatning ijodkor qatlamida rivojlanadi. "Sotsial-intellekt" iborasini birinchi bo'lib amerikalik psixolog va pedagog Edvard Li Torndayk fanga kiritgan edi. Ushbu ibora dastlab psixologiyada qo'llanilib, keyinchalik boshqa sohalarida ham ishlatila boshlangan. Sotsial-intellekt insonlar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni avvaldan ko'ra bilishlik hamda insonlararo munosabatlarga zamon nazari bilan baho berishni ilgari suradi.

Tadqiqotning maqsadi futbol fenomenining shaxs va jamiyatdagi oʻrni orqali futbolning jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga taʼsirining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“futbol” tushunchasiga ilmiy taʼrif berish, genezisi va evolyutsiyasini tadqiq etish asosida uning jamiyat madaniy yuksalishidagi ahamiyatini ochib berish;

zamonaviy jamiyatning ijtimoiy qiyofasini belgilashdagi futbol funksiyalarini asoslash hamda shaxs ijtimoiylashuvida futbolning fenomen sifatidagi ijtimoiy rolini aniqlash;

Oʻzbekiston taʼlim-tarbiya tizimida futbolni rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy omillarini ochib berish;

futbol fenomenini shaxs va jamiyatga ijtimoiy taʼsirini aniqlash hamda yoshlarda “milliy iftihor”, “milliy gʻurur”, “vatanparvarlik” tushunchalarini kamol toptirishning falsafiy mexanizmlarini aniqlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda futbolning tarixi, rivojlanishi, sport turi sifatidagi ahamiyati, muxlislik, jamiyatning maʼnaviy hayotida tutgan oʻrni va rolini ochib berish A.Imomxoʻjayev E.Yusupov, E.P.Xodjayev, A.Tulenova, A.Niyozov, A.Yerejepov, Sh.Sultonov, M.Yuldashev, O.Axmedov [1]kabi bir qator sportchi, faylasuf va jurnalist olimlar va ilmiy izlanuvchilar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan, futbolning fenomenologik xususiyatlari, madaniyat shakli sifatida oʻrganish, ishqibozlik jamoalari masalalari tadqiq etgan olim Klinton David Godfrey [2], bugungi kunda futbol aqlga asoslagan global fenomen hodisa sifatidagi ahamiyatiga doir tadqiqotlar Kristina Ayzenberg [3] ishlarida koʻrish mumkin, shu bilan birga iqtisodi zaif davlatlarning professional futbolchilari migratsiyasi va davlat iqtisodiyotdagi ulushiga oid izlanishlar Pier Lanfranch va Metyu Teylor [4] tadqiqotlaridan oʻrin olgan.

Futbolning jamiyat va shaxs kamoloti muammosi rossiyalik S.Tukmanov, M.Mitrafanov, P.Goryunov, I.Novikova [5], va boshqa tadqiqotchilarning dissertatsiyalarida sotsiologik, huquqiy nuqtai nazardan, Patrik fon Liuven, Y.A.Litinskaya, S.I.Kurilo, S.N.Alyoshina [6] lar ishlarida esa tarixiy nuqtai nazardan oʻrganilgan. Muammoga pedagogik yondashuv V.Y.Dayev, Al Ovaydat Raid, A.A.Shamardin[7] singari olimlar tadqiqotlarida amalga oshirilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

J. Gilford sotsial-intellektni umumiy intellektga aloqasi yoʻqligini, shunday boʻlsagʻda axloq-odob meʼyorlari taʼsirida axborot olish imkoni mavjud boʻlgan intellektual tizim deb taʼriflagan. Uning dasturidasotsial-intellektning quyidagi olti jihati jamlangan:

“Xulq-atvor elementlarini bilish – xulq-atvordagi soʻz (verbal) va soʻzsiz (noverbal) mazmundagi xatti-harakatlarni ajrata olish qobiliyati;

xulq-atvorni sinflarini bilish – xulq-atvor haqidagi ekpressiv yoki vaziyatli axborotlar oqimidagi umumiy xususiyatlarni anglash qobiliyati;

xulq-atvor munosabatlarini bilish – munosabatlarni tushunish qobiliyati;

xulq-atvor tizimini bilish – odamlar o'zaro ta'sirlashuvidagi yaxlit vaziyatlarning rivojlanish mohiyati, ularning ushbu vaziyatlardagi xulq-atvor mazmunini tushunish qobiliyati;

xulq-atvordagi o'zgarishlarni bilish – turli vaziyatlardagi kechayotgan xulq-atvor mazmunining o'zgarishini tushunish qobiliyati;

xulq-atvor natijalarining tushunish – mavjud axborotdan kelib chiqib, xulq-atvor oqibatlarini ko'ra olish qobiliyati" [8].

J. Gilford o'zining olti punktdan iborat dasturida asosiy urg'uni sotsial-intellekt asosini xulq-atvor tashkil etishiga qaratadi. Kuzatishlardan ham ko'rish mumkinki, intellektning xulq-atvor bilan bog'liqligi muhim bo'lib, ayniqsa, undan samarali foydalanishdagi rolida ham asosiy o'rinni egallaydi. Chunki, intellektning foydali va ezgu ishlarga sarf etilishi jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi o'n yillikda nevrolog va fiziologlar jismoniy harakatlarning inson aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'siri haqida qator xulosalarni taqdim etdilar. Sport bilan shug'ullanish neyronlar ishiga samarali ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda fikrlash qobiliyatini va kognitiv xususiyatlarni ham kuchaytiradi.

Bugungi zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatdagi aksariyat sohalariga kirib bordi. Uning jamiyatdagi faol ishtiroki sohalarning ishlash tezligi, aniqligi kabi sifatlarning yuqori darajaga olib chiqdi. Axborot-kommunikatsiyaning tezkorlik bilan rivojlanishi sun'iy-intellektning ko'lamini kengaytirdi va insonlar turmushidagi rolining ortishiga xizmat qildi.

Sun'iy intellektning vujudga kelishi XX asr o'rtalarida AQSHda kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan bog'lanadi. O'z o'rnida, sun'iy intellekt inson zakovatiga taqlidan yaratilganligini alohida e'tirof etish joiz. O'tgan asrda ilmiy-fantastika sifatida aytilgan fikrlar sun'iy intellekt tufayli kundalik hayotimizga aylanib bormoqda. Barcha sohada bo'lgani kabi sun'iy intellekt sport sohasiga ham kirib keldi. O'z navbatida, sportga sun'iy intellektning kirib kelishi juda ko'p tortishuvlarga sabab bo'ldi. Kuzatishimizcha, sun'iy intellektning sohalarga kirib kelishi zamonaviy yutuq sifatida qabul qilingan bo'lsa, sport sohasida esa turli qarshiliklarga uchradi. Sport sohasining ma'lum qatlamlari tomonidan sun'iy intellekt sportdagi jozibani yo'qotishi, o'yin dinamikasiga salbiy ta'sir etishi, sportchilarning o'yindagi haroratini bo'shashtirishi kabi sabablarni misol keltiradilar.

Professional sportda sun'iy intellektning ilk qadamlarini xokkeyda yaqqol kuzatish mumkin. Xokkey shaybasining darvoza chizig'ini bosib o'tgani va o'tmagani bilan bog'liq bo'lgan ko'plab tortishuvlar tufayli ham sun'iy intellekt mazkur sport turiga ham tatbiq etildi, natijada, bahsli vaziyatlarga ketadigan vaqt hamda sportchilarning raqib bilan turli tortishuvlariga barham berildi.

Sun'iy intellektning kirib kelishi keng muhokamaga sabab bo'lgan sport turi sifatida futbolni misol sifatida ko'rsatish mumkin. Futbolda eng ko'p tortishuvlarga sabab bo'ladigan to'pning darvoza chizig'ini kesib o'tgani yoki o'tmagani bilan

bog'liq, jarima maydonchasida to'pni qo'l bilan o'ynash bilan bog'liq tortishuvlar, penaltiga sabab bo'luvchi qo'polliklarni aniqlash kabi jihatlarida sun'iy intellekt (VAR) tizimi joriy etildi. Dastlabki sun'iy intellekt ishtirok etgan musobaqa 2018 yilgi Rossiyada o'tkazilgan jahon chempionati sifatida tarixda qoldi.

FIFA hakamlar qo'mitasi rahbari, sobiq hakam Perluidji Kollina futbolda axborot texnologiyalaridan foydalanish mazkur sport turining imidjini oshirish, jahon chempionati obro'sini saqlab qolish, eng asosiysi, o'yin davomida adolatni ta'minlashga xizmat qilishi haqida o'z fikrlarini bildirgan edi.

Jahonning sobiq taniqli hakamlaridan biri Massimo Buzakka barchasi muxlislar va futbol uchun ekanligi, insonlar futbol bilan bir qatorda sifatli hamda adolatli hakamlikdan ham zavq olish imkoniyatlari mavjudligi haqida o'z mulohazalarini bildirgan edi. Futbolga axborot-texnologiyalarining kirib kelishi inson omilining ikkinchi darajaga tushishi va futbol o'zining asliyatidan chekinadi, degan fikrga borish biroz noto'g'ri. VAR tizimi maydonda hakamga yordamchi, vaziyatlarga aniqlik kiritishda foydaliligi va so'nggi qaroni e'lon qilish hakamning zimmasida ekanligini alohida qayd etish o'rinli bo'ladi.

Xulosa

Globallashuv jarayonida ma'lumotlar oqimining ko'pligi, integratsiyaning kuchliligi, urbanizatsiyaning tezlashishi insoniyatdan kuchli ko'nikmalarning shakllanishini talab etmoqda. Insonning jamiyatga singib borishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda shaxsning aqliy imkoniyatlari va axloq sifatleri muhim o'rinni egallaydi.

Jamiyatda shaxsning ma'naviy qadriyatlar asosida rivojlangan intellektual qobiliyati uning muhim jihati. Kundalik hayotda shaxslarning aqliy qobiliyatlari haqida fikr bildirilganda, ularning asosiy individual farqlari sifatida asosan, ongi namoyon bo'ladi. Sport bilan shug'ullanish neyronlar ishiga samarali ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda fikrlash qobiliyati va kognitiv xususiyatlarni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Имомхўжаев А. Футбол – қувончим, дардим, фахрим: Монография. Тошкент: Шарқ, 1996. 205 б.; Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент: Университет, 1998. 38 б.; Ходжаев П., Туленова А., Ниёзов А., Ережепов А. Футбол сабоқлари. Тошкент. 2013. 155 б.; Султонов Ш. У. Футбол ўйининг пайдо бўлиш ва ривожланиш тарихи. Тошкент. 2014. 77 б.; Юлдашев М. (М. Шукурзода). Ўзбек футболи, кеча, бугун, эртага. Тошкент: Шарқ пресс, 2015. 158 б.; Аҳмедов О. Орзунинг шонли йўли-Тошкент: Янги китоб, 2021. –б. 150.

2. Clinton David Godfrey. Attitudes Towards Education in a Professional Football Academy: The Scholars' Perspective. University of Central Lancashire. 2017. 249 p.

3. Christiane Eisenberg(Hg.). Fußball, soccer, calcio. Ein eng-lischer Sport auf seinem Weg um die Welt. München, 1997.

4. Pierre Lanfranchi, Matthew Taylor. Moving with the Ball. The Migration of Professional Footballers. Oxford, 2001.

5. С. Тукманов Особенности трудо правового статуса профессионального футболиста. Дисс. Авторефат. Москва. 2007; М.Митрафанов. Управление профессиональными футбольными клубами. Дисс.. автореф... Санкт-Петербург. 2011; П. Горюнов. Формальные и неформальные структуры в среде футбольных болельщиков Санкт-Петербурга. Дисс.. автореф... Санкт-Петербург. 2015; И.Новикова. Дворовый футбол как фактор формирования социального капитала подростков в условиях современного города. Дисс.. автореф. Саратов. 2010.

6. Патрик фон Лиувен. Философия футбола. Киев: Издать книгу, 2022. 1360 с. Е.А. Литинская. Аксиология спорта высших достижений в современном обществе. Дисс.. автореф.. Москва. 2013; С.И. Курило. Социально-философская концепция международного спорта. Дисс... автореф... Нижний Новгород. 2000; С.Н. Алёшина. Актуализация возможностей человека в современном спорте: социально- философские аспекты. Дисс... автореф. – Таганрог. 2008.

7. В.Е. Даев. Оптимизация спортивного отбора и ориентации футболистов по игровым амплуа на этапе углубленной специзации. Дисс.. автореф... Махаловка. 2007; Аль Овайдат Раид. Комплектование игровых линий в детско-юношеских футбольных командах на основе комплексной оценки подготовленности спортсменов. Дисс.. автореф.. Волгоград. 1999; А.А. Шамардин. Целевая функциональная подготовка юных футболистов. Дисс.. автореф.. Волгоград. 2009.

8. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта. Психология мышления / Под ред А. М. Матюшкина. – Москва, 1965. – С. 70.